

ABDURAUF FITRATNING “SHOIR” SHE’RI HAQIDA

Nizomova Kamola Vohid qizi

BuxDU 1-kurs magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Shoir” she’ri tahlilga olingan. She’r mohiyati, yozilish sababi, badiiyati haqida fikr yuritilgan. She’rda Fitratning ham shoir, ham nazariyotchi sifatida yondashganligi misollar orqali ochib berilgan.*

Kalit soʻzlar: *shoir, she’r, lirik qahramon, poetik ma’no, soʻz, ruhiyat.*

Abstract: *This article analyzes Abdurauf Fitrat's poem "Poet". The essence of the poem, the reason for writing it, and its artistic merit are discussed. In the poem, Fitrat's approach as both a poet and a theorist is revealed through examples.*

Keywords: *poet, poem, lyrical hero, poetic meaning, word, spirit.*

Аннотация: *В статье анализируется стихотворение Абдурауфа Фитрата «Поэт». Обсуждается суть поэмы, причина ее написания и ее художественные достоинства. Поэма раскрывает подход Фитрата как поэта и теоретика посредством примеров.*

Ключевые слова: *поэт, стихотворение, лирический герой, поэтический смысл, слово, дух.*

XX asr oʻzbek adabiyotining yirik adibi fan arbobi Abdurauf Fitrat betakror yozuvchi, dramaturg va shoirdir. “Fitrat”- Abduraufning taxallusi boʻlib, uning maʼnosi “tugʻma isteʼdot” degani. Taxallusi oʻziga mos boʻlgan favqulodda jasoratli jadid Abdurauf Fitrat isteʼdodi oʻlaroq bizgacha katta ijodiy meros yetib keldi. Manbalarda Fitrat ijodini shartli ravishda uch davrga boʻlishadi.

Birinchi davr -1909-1916-yillarini oʻz ichiga olib, turkiya taassurotlaridan ilhomlangan holda jadid maʼrifatparvari sifatida ijod qilgan.

Ikkinchi davr- 1917-1923-yillarni qamrab oladi, bu davrda Fitrat milliy istiqlol gʻoyalari bilan toʻyingan asarlar yozadi.

Ijodining uchinchi davri 1923-1937-yillarga oid boʻlib, shoʻro maxfiy xizmatining doimiy nazoratida boʻlgan. Fitrat asosan ilmiy -pedagogik ishlar bilan shugʻullanadi.⁵⁴

Abdurauf Fitrat qalamiga mansub sheʼrlar, asosan, ikkinchi davrda yaratilgan. Xususan, uning biz tahlil qilmoqchi boʻlgan " Shoir" nomli sheʼri ham 1920- yil 24-martda yozilgan. "Shoir" mavzusidagi sheʼr erkin vaznda yozilgan boʻlib, 3 banddan tashkil topgan. Shoir tomonidan boʻlingan 3 band mazmunan ketma-ketlik hosil qilgan. Lirik qahramon ijodkorning oʻzi, u men tilidan hikoya qiladi. Abdurauf Fitrat bu sheʼri orqali fikrni oʻziga xos yoʻl bilan poetik ifoda qila biladi. Balki bu sheʼr bagʻishlanma

⁵⁴ Begali Qosimov “Abdurauf Fitrat”, ziyouz.uz.2016.

tarzida yozilganligi uchun ham ajralib turar. "Yurt qayg'usi" nomli to'plamga kiritilgan "Shoir" she'riga ilova qilinib Miyon Buzruk Solihovning dalolati bo'yicha bu she'r Abdulhamid Cho'lponga bag'ishlangan deyiladi. Buyuk shoirning benazir insonga atalgan dil so'zi ham badiiy, ham mazmunan go'zallik kasb etadi.

Bugun yig'lab o'tirmishdim, sen kelding,
Bir shoirning bir "so'zi"ni so'zlading,
Men u so'zning ruhingdagi izlarin
Sening go'zal ko'zlaringda o'qidim. [2,9]

Lirik qahramon nega yig'layapdi, uning bu qayg'usiga nima sabab bo'ldi? Albatta, mustamlakachilik, xalqning boshiga kelgan qora bulutlar, iqtisodiy qaramliklar, ijtimoiy, ma'naviy qashshoqliklar. Bular shoirni mudom g'amga soladi. Ikkinchi qatordagi bir so'z - bu umid. Lirik qahramon shoir so'zini eslaydi va uning aksini shoir ko'zlarida ko'radi. Inson qalbida kechgan tuyg'ular ko'zda namoyon bo'lishi deb shuni aytishsa kerak. "So'z" ramzi orqali mohiyatan umid, hurriyat, kelajakka ishonchни tushunsa bo'ladi.

O'qiduqcha, u izdan
O'zim uchun ko'p umidlar to'qidim.
- Umidsizcha yashay olmom, netayin. [2,9].

Darhaqiqat, inson umid bilan tirik, ruhiyat kelajakdan nimanidir kutadi. Keyingi misralarda aniq syujet bayoniga duch kelamiz. Yani shoir sevgilisiga maktub yozarkan, unga o'z qayg'ularini to'kadi, oxirida esa unga pafos berish uchun ruhidan ko'mak istaydi. Bu yerda ishqning asl ilohiyligiga ishora mavjud. Keyingi band "Bilasanmi?" deya so'roq gap bilan boshlanadi va shoir so'ziga ta'rif beriladi. U ishqning eng nozli, erka, injiq yog'dusi deyiladi. Bu tarif adabiyotda faqat Abdurauf Fitrat ijodida uchraydi. Davomida shoirni tabiatdan sirli, teran ma'nolarni tiriklik uchun ochib, to'g'ri, chin ma'nolarni izlab topadi, lekin o'zi uchun saqlamaydi deb shoirlik vazifasini anglatib o'tadi.

Yoz gulining yaprog'idan to'kilgan
"So'z" lar ilan o'rab bizga topshirar. [2,9].

Yozda turli o'simliklar o'z go'zalligini namoyon etib sullagani bois ijodkor shoir lug'at boyligidan faqat yoz guliga o'xshash so'zlar bo'lishi kerak va u shu gul yaproqlari bilan o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrni o'rab o'quvchiga yetkazsin deyapti. Sherning bu jihatlari Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalaridagi" sher va shoirlik bo'limiga o'zaro hamohang: "Kishining yuragi qancha "sezag'on" mutaxassis esa, shuncha yaxshi shoir bo'lar".⁵⁵

34 qatordan iborat ushbu sherda 5 marotaba "Shoir" va 5 marotaba "so'z" so'zlari o'zaro ketma ketlikda tilga olingan. Bu ketma-ketlikda o'ziga xos dinamika bor. Bu

⁵⁵ Abdurauf Fitrat. "Tanlangan asarlar." 1-jild Toshkent, Ma'naviyat-2009, 7-bet.

rivojdagi dinamika kichik tuyg'ulardan ulug' hislarga ulanadi, turg'un bayondagi mushohadalarga tutashadi. Injiq yog'du, ishq bog'i, yo'qsul ko'ngul istioralari she'r badiiyotini oshirgan. Muallif bir necha bor tashxis san'atidan foydalangan. Bunga misol qilib " ingrab turgan jon", "tentak, singirli, yongan bulbul" birikmalarini olishimiz mumkin. Bu jihatlardan olib qaralsa, sh'er badiiyati yuksak, mazmuni teran poetik tasvirlarda berilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir she'r shoir shaxsiyati bilan uzviy bog'liq, aloqador. Ruhiyat va qalb kechinmalari mahsuli sifatida she'r yaralar ekan shoir unga o'zini baxshida etadi. Shoirlik masalasi , ham ancha qiyin , uning yuki o'g'ir. Tug'ma iste'dod va mahorat bu yukni ko'tara oladi. She'r mazmunida mana shunday haqiqat yotadi. Abdurauf Fitrat nazariyotchi olim ko'zi bilan yozgan "shoir" she'ri o'zing badiiy qiymatiga ega, chunki u o'ziga xos poetik yo'lda yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurauf Fitrat. "Tanlangan asarlar." 1-jild Toshkent, Ma'naviyat-2009.
2. Abdurauf Fitrat "Yurt qayg'usi (she'rlar)"Toshkent, Ma'naviyat-2009.
3. Begali Qosimov "Abdurauf Fitrat " , ziyo.uz 2016.
4. Begali Qosimov va boshqalar." Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" Toshkent, Ma'naviyat-2004.
- 5.Ozod Sharafiddinov "Ijodni anglash baxti" Toshkent, Sharq-2004.
- 6.Shoiraxmedova "Ma'rifatparvar jadid tanqidchilari" Germaniya, Glebe edit-2023.